# O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNING BUGUNGI HOLATI

**Egamberdiyeva Nigora Azizovna**
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi p.f.f.d; CHDPU
https://orcid.org/0009-0001-1670-7890
nigoraazizovna1991@gmail.com
Talabalar, CHDPU, Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O‘zbekiston
**Suyunova Maftuna**
doniyormuhammadiyev98@gmail.com
**Muslimova Zarina**
zarinamuslimova0@gmail.com
**Erkinovna Durdona**
erkinovadurdona62@gmail.com
**Sagdiyeva Shahzoda**
Sagdiyevashahzoda6@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning bugungi holati, uning rivojlanish bosqichlari, mavjud muammolar va istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim tizimiga jalb etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar, normativ-huquqiy asoslar hamda amaliy yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirishda maxsus pedagoglarning roli va zamonaviy metodikalarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, inklyuziv ta’lim, maxsus pedagog, alohida ta’lim ehtiyojlari, integratsiya, ijtimoiy moslashuv, ta’lim sifati.

**Аннотация:** В данной статье анализируется современное состояние инклюзивного образования в Узбекистане, этапы его развития, существующие проблемы и перспективы. Также освещаются проводимые реформы, нормативно-правовые основы и практические подходы к включению детей с особыми образовательными потребностями в систему общего образования. Результаты исследования показывают роль специальных педагогов и значение современных методик в совершенствовании системы инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** Узбекистан, инклюзивное образование, специальный педагог, особые образовательные потребности, интеграция, социальная адаптация, качество образования.

**Abstract:** This article analyzes the current state of inclusive education in Uzbekistan, its stages of development, existing challenges, and future prospects. It also highlights the reforms, legal frameworks, and practical approaches implemented in the process of integrating children with special educational needs into the general education system. The results emphasize the important role of special educators and modern methodologies in improving the effectiveness of inclusive education.

**Keywords:** Uzbekistan, inclusive education, special educator, special educational needs, integration, social adaptation, quality of education.

## KIRISH

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mazkur sohada izchil islohotlar amalga oshirilib, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni jamiyatga to‘laqonli integratsiya qilish, ularning sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. [1]Inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim tizimining tarkibiy qismi, balki ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori mazkur yo‘nalishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qaror asosida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish, ularni umumiy ta’lim muhitiga integratsiya qilish hamda inklyuziv ta’limni tizimli rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Mazkur hujjat doirasida 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi, shuningdek, 2020–2021-yillarda uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Shu bilan birga, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) belgilandi. Ushbu islohotlar inklyuziv ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, ta’lim muassasalarida qulay shart-sharoitlar yaratish, maxsus pedagoglar faoliyatini kuchaytirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning bugungi holatini o‘rganish, uning samaradorligini baholash va mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Inklyuziv ta’lim muammolari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham keng o‘rganilayotgan dolzarb pedagogik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va samaradorlik ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Manbalar orasida Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot muhim o‘rin tutadi. Ushbu darslikda inklyuziv ta’limning mohiyati, asosiy tamoyillari, o‘qitish metodlari hamda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashning samarali yo‘llari yoritilgan. Mualliflar F.U. Qodirova va D.A. Pulatova inklyuziv ta’lim jarayonida individual yondashuv va pedagogik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Shuningdek, Sensor integratsiya. Darslik muallifi X.Sh. Yunusova tomonidan sezgi integratsiyasi asosida bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash masalalari keng yoritilgan bo‘lib, bu inklyuziv ta’limda innovatsion yondashuvlardan biri sifatida qaraladi. Rus olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy manbalarda inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik asoslari chuqur tahlil qilingan. Jumladan, L.S. Vygotskyning ilmiy qarashlari, ayniqsa “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, A.R. Luria va V.V. Lebedinsky tadqiqotlarida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixik xususiyatlari va ularni korreksiyalash yo‘llari yoritilgan. Xalqaro miqyosda esa inklyuziv ta’limning rivojlanishida UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar va tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Salamanca Statement inklyuziv ta’limni rivojlantirishning global strategik hujjati sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, UNICEF tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda barcha

[1] Feruz Ablayarov, “O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim: joriy o‘zgarishlar va taraqqiyot yo‘nalishlari”.

bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy yondashuvlar, zamonaviy metodikalar va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolani tayyorlashda ilmiy tadqiqotlarning bir qator usullaridan foydalanildi. Avvalo, tahlil va sintez metodlari yordamida milliy va xorijiy adabiyotlar o'rganilib, umumlashtirildi. Taqqoslash metodi orqali turli mamlakatlarda inklyuziv ta'limni tashkil etish tajribalari o'zaro solishtirildi. Kuzatish metodi asosida inklyuziv ta'lim jarayonida maxsus pedagoglarning ishtiroki va uning samaradorligi o'rganildi. Statistik tahlil usullari yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ va emotsional rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Kompleks yondashuv asosida Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining qo'llanilishi natijalari baholandi. Mazkur metodologik yondashuvlar inklyuziv ta'limning bugungi holatini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar

**NATIJALAR**

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida so'nggi yillarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga jalb qilinishi, inklyuziv ta'lim va bandlik tizimini takomillashtirish (66-maqsad), shuningdek, yoshlar uchun sifatli va ochiq ta'lim muhitini yaratish (70-maqsad) ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida nogironligi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va bandligini ta'minlash borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, PQ-57-sonli qaror asosida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, kasb-hunarga o'qitish va subsidiya ajratish mexanizmlari joriy etildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda 14–30 yoshdagi nogironligi bo'lgan yoshlar soni 121 009 nafarni tashkil etgan bo'lib, ularning muayyan qismi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlariga jalb etilgan. Xususan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali kelib tushgan arizalarning 28 foizi qanoatlantirilib, 437 nafar yoshga 5,1 mlrd so'm subsidiya ajratilgan. Natijada 356 nafar yosh mustaqil tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yib, ularning bandligi ta'minlangan. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi hamda 2023–2025-yillarga mo'ljallangan Milliy harakatlar rejasining qabul qilinishi inklyuziv ta'limni xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga xizmat qilmoqda[2].

Ta'lim tizimida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2023–2024 o'quv yilining birinchi yarim yilligida respublika bo'yicha 530 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etilib, 1 195 nafar alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar qamrab olingani qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichlar inklyuziv ta'lim qamrovining bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 12 ta metodik va 10 ta tavsiyaviy qo'llanmalar ishlab chiqilgan, pedagoglar uchun muntazam seminar-treninglar tashkil etilmoqda hamda malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilgan.

Quyida O'zbekiston inklyuziv ta'lim sohasida 2023–2024 o'quv yilida erishilgan asosiy natijalar umumlashtirilgan:

[2] Feruz Ablayarov - O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari. "O'zbekistonda inklyuziv ta'lim: joriy o'zgarishlar va taraqqiyot yo'nalishlari".

| Ko‘rsatkichlar | Natijalar (2023–2024 yy.) |
|---|---|
| Inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni | 530 ta |
| Qamrab olingan o‘quvchilar soni | 1 195 nafar |
| Maxsus pedagoglar soni | 115 nafar |
| Ajratilgan subsidiyalar (yoshlar uchun) | 5,1 mlrd so‘m |
| Bandligi ta’minlangan yoshlar | 356 nafar |

**1-jadval**

Shu bilan birga, olib borilgan ishlar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, hududiy bo‘limlarda faoliyat yuritayotgan psixolog-metodistlar uchun muntazam malaka oshirish kurslarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kuzatilmoqda. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar inklyuziv ta’lim tizimining izchil rivojlanayotganini ko‘rsatsa-da, uning samaradorligini yanada oshirish uchun kadrlar tayyorlash, metodik ta’minotni kuchaytirish va hududlar kesimida teng imkoniyatlarni yaratish zarurati saqlanib qolmoqda.

**MUHOKAMA**

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar natijalari, birinchi navbatda, davlat siyosatining aniq va ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar inklyuziv ta’limni rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat hayotiga jalb qilish va yoshlarning sifatli ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablarda maxsus pedagoglar faoliyati o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, 1 195 nafar alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning qamrovi va maxsus pedagoglar sonining 115 nafarga yetishi, shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan metodik qo‘llanmalar va seminar-treninglar samaradorlikni oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. Inklyuziv ta’lim bilan birga nogironligi bo‘lgan yoshlar uchun tadbirkorlik va bandlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etilganligi, ularga subsidiya ajratilishi va zamonaviy kasblarga o‘qitilishi ijtimoiy moslashuvni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa inklyuziv ta’limning nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ham oshirayotganini ko‘rsatadi.

Tahlillar ayrim hududlarda malaka oshirish kurslari yetarli darajada tashkil etilmaganligi va psixolog-metodistlar soni cheklanganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa inklyuziv ta’limning sifatini yanada oshirish va barcha hududlarda teng imkoniyatlar yaratish zaruratini tug‘diradi. Xorijiy tajriba, jumladan UNESCO va BMT tavsiyalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur: maxsus pedagoglarni tayyorlash, individual ta’lim dasturlari ishlab chiqish, ota-onalar va jamoatchilikni jalb qilish, shuningdek, nodavlat ta’lim va qo‘shimcha resurslardan samarali foydalanish. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivojlanishi davlat, jamiyat va pedagogik hamkorlikning samarali uyg‘unlashuvi orqali amalga oshirilmoqda. Biroq, kelgusida tizimning barqarorligi va keng qamrovli rivojlanishi uchun kadrlar tayyorlash, metodik ta’minotni mustahkamlash va hududlar kesimida monitoring tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-4860, “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 13 oktabr 2020.
2. Feruz Ablayarov, “O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim: joriy o‘zgarishlar va taraqqiyot yo‘nalishlari”.
3. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova va boshqalar, “Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot”, darslik.
4. F.U.Qodirova va boshqalar, “Maxsus pedagogika asoslari”, o‘quv qo‘llanma.
5. X.Sh.Yunusova, “Sensor integratsiya”, darslik, Toshkent: Dimal nashriyoti, 2026-y., 142 b.
6. UNESCO, “Inclusive Education: The Way of the Future”, Paris, 2020.
7. Florian, L., “The SAGE Handbook of Special Education”, London: SAGE Publications, 2021.
8. Norwich, B., “Special Educational Needs, Inclusion and Diversity”, Routledge, 2020.
9. Booth, T., Ainscow, M., “The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools”, Bristol, 2016.
10. О.А. Козлова, “Инклюзивное образование: теория и практика”, Москва: Просвещение, 2019.
11. Loreman, T., “Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom”, New York: Routledge, 2022.
12. Shadiev, R., & Rakhmatullaev, D., “O‘zbekistonda maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim tajribalari”, Toshkent, 2021.
13. UNICEF, “Including Children with Disabilities in Education: Global Review”, New York, 2020.